



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA NUTQNI O'STIRISH METODIKASI

Z.B.Turimbetova,

NDPI boshlang'ich ta'lim kafedra
o'qitivchisi

Zamiraturimbetova777@gmail.com

Annotatsiya- Ushbu maqolada nutq haqida, nutq rivojlanish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, til, so'z nutq madaniyati, nutqni o'zlashtirish, nutq o'stirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish, nutq madaniyatini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining oldida turgan eng dolzabr vazifalardan biridir. Bu borada o'qituvchining o'rnini hech qanday vosita bosa olmaydi. O'quvchilarning ravon va burro nutqini shakllantirishda, dunyonи anglatishda o'qituvchi nutqining ham o'rni beqiyosdir. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqi ustida ham mukammal ishlashi va darslarini tashkil qilishda o'quvchilarni barkamol hamda har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun puxta bilimli, o'z fikrini chiroyli, ravon nutq qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila bilishi lozim. Savod o'rgatish davridan boshlab o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga e'tibor qaratiladi. Bu borada o'qish fani o'quvchilarning nutqini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qish fanining asosiy vazifasi o'quvchilarni to'g'ri, ongli, ravon va ifodali o'qishga o'rgatadi. O'quvchi qancha ko'p o'qisa uning nutq madaniyati rivojlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyatları shakllanadi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlamning assotsiatsiya asosida bogianishining ortishida ifodalananadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir»[1.]

Nutqni o'stirish bu to'g'ri nutqni o'zlashtirish, egallah jarayoni bo'lib, til vositalari (fonetika, leksika ya'ni lug'at va boshqalar) orqali o'z fikrlarini ifodalash, tushuntirish mexanizmlaridir. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning nutqni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq bu shaxsda o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining faol faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq matabda muvaffaqiyatli ta'lim olish quroldidir. Aynan shuning uchun ham biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishga katta ahamiyat berishimiz lozim.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallahshlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vosititalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutqni egallahshning qator aspektlari mavjud.

Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1) so'z ustida ishslash;

2) so'z birikmasi va gap ustida ishslash;

3) bog'lanishli nutq ustida ishslash.

Nutq o'stirish usullaridan yana biri sifatida matn qurish usuli nutq mashqlarining texnikasi va turlarining keng doirasiga ega. Ularning aksariyati odatda tayyorgarlik yoki yordamchi funktsiyani bajaradi: ular nutq mashqini tayyorlash jarayoniga uning turli bosqichlarida to'qiladi. Bu lug'atlar, iboralar ustida ishslash,



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍnda ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ» atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

gaplar ustida ishslash, mantiqiy ish: tushunchalar bilan ishslash va ularning tariflarini qurish, obyektlarni, tabiat hodisalarini belgilariga ko‘ra taqqoslash, matn nazariyasiga asoslangan mashqlar. Matn namunalari tuzilishini modellashtirish va o‘z matningizni ushbu modelga bo‘ysundirish, matningizni tahrirlash; matnda muloqot turlarini mashq qilish; turli funktsional va semantik tipdagи matnlarni tuzish: tavsiflar, rivoyatlar va mulohazalar, shuningdek, turli janrlar: hikoyalar, landshaft eskizlari, rasmlarning tavsiyalarini, insholar, gazeta maqolalari, xatlar, pyesalar; syujetni dialogik shaklda yetkazish.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish bo‘yicha ushbu turdagи ishlar kompozitsiya kabi barcha sanab o‘tilgan usullardan foydalanadi. Chunki insho yozishga tayyorlanayotganda uning turi, turi va janriga qarab matn modeli aniqlanadi, reja tuziladi, tayanch so‘z va konstruksiyalar ko‘rsatiladi. Shuningdek, tayyorgarlik jarayonida bolalar mavzu bo‘yicha savollarga javob beradilar, o‘z fikrlarini bildiradilar, keyin esa o‘zlari matn tuzadilar.

Og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosan, bolalaning og‘zaki nutqini o‘stirish bilan birga nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirishga:

- nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish;
- sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalani gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish;
- tovush va so‘zlamni to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga;
- mustaqil hikoya qilishga e’tibor beriladi.[2.]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarining ko‘pchiligi o‘z fikrini bayon qilishga, ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon eta olmaydi, bog‘lanishli jumlalarni noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz tuzish hollari juda k o‘p kuzatiladi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o‘zaro bir-birlari bilan bog‘lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun o‘qish darslarida amalga oshirilayotgan o‘quvchilarda nutq o‘stirish borasidagi harakatlarning ona tili darslarida matn ustida ishslashga oid mashqlar bilan uzviy bog‘lab olib borilishini ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari o‘qish va ona tili darslarida turli hikoyalarni o‘yin orqali o‘stirish imkonii ham mavjud bo‘lib quyidagi o‘yinlardan namuna keltiramiz:

“Qarama-qarshi so‘zlar.” Bu o‘yin mantiqiy tafakkurning hamda nutqning rivojlanishiga yordam beradi . O‘yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

o'tkazish mumkin. O'yin sharti quydagicha: o'qituvchi bola yoki o'quvchiga bir so'zni aytadi, o'quvchi shu so'zning ma'nosiga qarama - qarshi bo'lgan so'zni topib aytishi kerak. Masalan: katta - kichik, issiq - sovuq, achiq - shirin, qorong'u - yoruğ, keng-tor, uzoq-yaqin va hokazo. Odadta bolalar o'yin boshida biroz qiynalishadilar, aytilgan so'zga javoban antonim so'zni emas, sinonim so'z bilan javob beradi, masalan: katta - baland, uzun - uzoq kabi. Ammo o'yining mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng o'quvchilar yaxshi o'ynaydilar. O'yin bir necha marta o'tkazilganidan so'ng o'quvchilar abstrakt tushunchalarni ham osonlik bilan tushunadilar va javob beradi, shunda o'quvchilarning nutqi ham rivojlana boradi, masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa kabi so'zlarga ham tez javob topa oladi. "To'rtinchisi ortiqcha."

Bu o'yin rasmlarsiz o'ynaladi. O'quvchiga yoki bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytildi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo'ziqorin. O'quvchi ular orasidan ortiqchasini aytganidan so'ng undan fikrini asoslab berishi so'ralishi kerak. Bu o'yinlar o'quvchilarning tafakkuri rivojlanishiga yordam berishi bilan birga, nutqning o'sishiga ham yordam beradi. O'yin individual tarzda o'tkazilsa ham yaxshi samara beradi, guruhda musobaqa ko'rinishida o'tkazilsa, o'quvchilarning qiziqishi yanada ortadi.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. — 1972. -№ 9. С.95-108
2. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - Т.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
3. Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhhan. "CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN." *Open Access Repository* 9.12 (2023): 372-375.
4. Карпова, А. А. Развитие речи учащихся на уроках в начальной школе / А. А. Карпова. — Текст : непосредственный // Образование и воспитание. — 2016. — № 5 (10). — С. 133-138. — URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/48/1699/> (дата обращения: 01.03.2024).
5. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARLING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *PEDAGOGS*, 48(2), 49-51.